



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No6**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr.  
2026-yil, iyun.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeveva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                        |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI<br>JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                         | 21 |
| <b>Ergashkulov Muyinjon Umedovich</b>                                                                                                                                  |    |
| “AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY<br>FAOLIYATI TAHLILI .....                                                                  | 28 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b><br><b>Eshdavatov T.A.</b>                                                                                                       |    |
| MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOT KO'RSATKICHLARINI<br>SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....                                                                              | 32 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b><br><b>Qodirov B.</b>                                                                                                            |    |
| MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM<br>ETISHNING ME'YORIYHUQUQIY ASOSLARI .....                                                                   | 36 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b><br><b>Saidmurodov J.N.</b>                                                                                                      |    |
| “AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT<br>TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI .....                                                                       | 40 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b><br><b>Xalilov J.H.</b>                                                                                                          |    |
| MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY<br>MOHIYATI VA AHAMIYATI.....                                                                                      | 45 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b><br><b>Xamroqulov A.X.</b>                                                                                                       |    |
| GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....                                                                                                       | 49 |
| <b>Daminova Barno Esanovna</b><br><b>Asrorova Nilufar Bobur qizi</b><br><b>Botirova Shodiya Turdimurod qizi</b>                                                        |    |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL<br>ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI .....                                                                 | 56 |
| <b>Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna</b>                                                                                                                                 |    |
| XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR<br>IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH..... | 60 |
| <b>Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o'g'li</b>                                                                                                                          |    |
| XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....                                                                              | 65 |
| <b>Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi</b>                                                                                                                               |    |
| GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI,<br>EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI .....                      | 69 |
| <b>Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li</b>                                                                                                                          |    |



|                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTONDA GID VA EKSKURSOVODLAR SOHASIDA INNOVATSIYALAR VA YANGILIKLAR.....     | 73  |
| Ergasheva Iroda Ibrohim qizi                                                        |     |
| Xojaqulova Nargiza                                                                  |     |
| MA'LUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB SO'ROVLAR YARATISHNING NAZARIY                        |     |
| ASOSLARI, FORMAL MODELLARI VA OPTIMALLASHTIRISH NAZARIYASI.....                     | 78  |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Shermatova Shaxzoda Bakhtiyor qizi                                                  |     |
| Ne'matova Sevinch Ismat qizi                                                        |     |
| Xolmakhmatov Navruzbek Farrux o'g'li                                                |     |
| THE ROLE OF CLOUD COMPUTING IN ENHANCING ENTERPRISE PERFORMANCE.....                | 83  |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Jumayev Khayit Fayzullo ugli                                                        |     |
| Normuminov Zayniddin Bekmurod ugli                                                  |     |
| Bozorov Ilkhom Soatmurod ugli                                                       |     |
| ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING APPLICATIONS                           |     |
| IN MODERN INFORMATION SYSTEMS.....                                                  | 88  |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Nurmamatov Nodirbek                                                                 |     |
| Turdimurodov Tulkin                                                                 |     |
| Xudoyorov Sardor                                                                    |     |
| RAQAMLI INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA TATBIQI .....                | 93  |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Jo'rayeva Xusniya Murtozoqul qizi                                                   |     |
| Beshimova Munisa Usmon qizi                                                         |     |
| BIG DATA ANALYTICS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR DECISION-MAKING PROCESSES..... | 97  |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Narimonova Sevinch Shaka kizi                                                       |     |
| Pulatkhonova Sitabonu Vohid kizi                                                    |     |
| BLOCKCHAIN TECHNOLOGY AND ITS IMPACT ON SECURE DIGITAL TRANSACTIONS .....           | 102 |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Ruziyeva Oynisa Rahimkul kizi                                                       |     |
| Hamidova Nozima Ulugbek kizi                                                        |     |
| AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM DARAJASINING ROLI.....                  | 108 |
| Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi                                                   |     |
| CYBERSECURITY CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION .....   | 112 |
| Daminova Barno Esanovna                                                             |     |
| Lapasova Sevinch Elmurod kizi                                                       |     |
| Ismoilova Rushana Kuvondik kizi                                                     |     |
| ПРЕВРАЩЕНИЕ ТАШКЕНТА В РЕГИОНАЛЬНЫЙ АВИАЦИОННЫЙ                                     |     |
| ХАБ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ                              |     |
| ОТНОШЕНИЙ И СИСТЕМНЫЕ УГРОЗЫ.....                                                   | 117 |
| Убайдуллаев Сирожиддин Жамшид угли                                                  |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RAQAMLI QIYOFASI: SUN'IY INTELLEKT                     |     |
| VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI SO'NGGI TENDENSIYALAR.....                     | 124 |
| Narmanov Ulug'bek Abdugapporovich                                                   |     |
| Jumaboyev Abror Shuhrat o'g'li                                                      |     |



# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RAQAMLI QIYOFASI: SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI SO'NGGI TENDENSIYALAR

**Narmanov Ulug'bek Abdugapporovich**

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti

Moliya va kredit kafedrası o'qituvchisi, PhD

**Jumaboyev Abror Shuhrat o'g'li**

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti

"Budjet nazorati va g'aznachiligi" yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: abrorjumaboyev2005@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdá O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, statistikasi hamda raqamlashtirishni yanada jadal rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'rganilgan. Hamda O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli ko'rinishi va so'nggi tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, Raqamli O'zbekiston, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va elektron hukumat.

**Аннотация:** В данной диссертации исследуется уровень развития цифровой экономики в Узбекистане, статистические данные и меры, принятые для дальнейшего ускорения цифровизации. Также рассматривается цифровая среда и последние тенденции развития узбекской экономики.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, Цифровой Узбекистан, цифровые технологии, искусственный интеллект и электронное правительство.

**Abstract:** This thesis studies the level of development of the digital economy in Uzbekistan, statistics and measures taken to further accelerate digitalization. It also examines the digital landscape and recent trends of the Uzbek economy.

**Keywords:** digital economy, Digital Uzbekistan, digital technologies, artificial intelligence and e-government.

## KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt jahon miqyosida barcha sohalarga kirib kelmoqda va ushbu sohalarning jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning iqtisodiyot sohasiga kirib kelishi iqtisodiy operatsiyalarning tezlashishi va soddalashishiga, shaffoflikning ortishiga, nazorat mexanizmlarining takomillashishi orqali boshqaruv tizimining takomillashishiga sabab bo'ldi. Umumiy qilib aytganda, bu jarayon muhim o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmagan holda, iqtisodiyotning ko'p tarmoqlarida innovatsion raqamli infratuzilmalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning yaqqol isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [1] bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" milliy strategiyasi tasdiqlanganini keltirish mumkin. Ushbu strategiyaga ko'ra, 2030-yilgacha davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini kengaytirish, katta bazaga ega bo'lgan ochiq axborot tizimini yaratish hamda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini 30 foizga yetkazish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hududlar kesimida yanada batafsil yoritilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish yo'lida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Buning natijasida ilmiy-o'quv qo'llanmalar va maqolalar soni oshib bormoqda. O'zbekistonda raqamli





iqtisodiyotni yanada tezroq va samaraliroq rivojlantirish rejasi bo'lgan “Raqamli O'zbekiston – 2030” milliy strategiyasi qabul qilingan. Ushbu strategiyaga ko'ra, 2030-yilgacha davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini kengaytirish, katta bazaga ega bo'lgan ochiq axborot tizimini yaratish belgilangan. Norqulov Ilhom Ibrohimovichning “O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati” (2025) nomli o'quv qo'llanmasi Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi hamda BMT Taraqqiyot dasturining qo'shma loyihasi ko'magida tayyorlangan<sup>1</sup>. Ushbu qo'llanmada O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti qanday darajada ekanligi aniq statistikalar bilan o'rganilgan. Rahmonov Samandarning “Development of Digital Economy of Uzbekistan and Impact on Economic Growth” maqolasida<sup>2</sup> “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasining iqtisodga oid asosiy maqsadlari va O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi yoritib berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanish tendensiyalari, ularning iqtisodiy o'sish va boshqaruv tizimiga ta'siri hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining bugungi holatini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil, mantiqiy mushohada hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish darajasi, mavjud muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari aniqlanib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda va u mamlakatning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy rivojlanishida ham muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanish darajasini to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin.

### 1. Elektron hukumat

O'zbekiston elektron hukumat sohasida sezilarli natijalarga erishmoqda. 2023-yilgi Global innovatsiya indeksida O'zbekiston “Hukumatning onlayn xizmatlari” indikatori bo'yicha 132 mamlakat ichida 57-o'rinni egalladi<sup>3</sup>. Raqamli hukumatni rivojlantirishning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni [2], O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O'RQ-395-sonli “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonuni [3], O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-sonli “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi Qonuni [4], O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi O'RQ-793-sonli “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi Qonuni [5], O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni [6] hamda O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-sonli “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi Qonunini [7] keltirish mumkin. “Raqamli hukumat” loyihalarini boshqarish markazi vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, raqamlashtirilgan xizmatlar soni 2022-yil yanvaridagi 307 tadan keyingi davrlarda 675 taga yetgan. Shu bilan birga, elektron davlat xizmatlari ko'lamini bosqichma-bosqich kengayib, turli vazirlik va idoralar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilmoqda. Amaliy misol sifatida OneID va My.gov.uz tizimlarini keltirish mumkin. Ushbu tizimlar foydalanuvchilarga ko'plab elektron davlat xizmatlaridan masofadan foydalanish imkonini beradi. Bu esa fuqarolarning vaqt va xarajatlarini tejash, davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat xaridlarining elektron tizimi — dxarid.uz ham davlat xaridlari jarayonlarida ochiqlik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

### Bank sohasida va investitsiya bozorida raqamli transformatsiyaning roli

Bank sohasiga raqamlashtirishning kirib borishi bu sohalarning rivojlanish istiqbolida keskin burilishga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda har bir bankning o'z shaxsiy platformalari mavjud. Bu esa bank mijozlariga bankning deyarli barcha xizmatlaridan, ya'ni pul o'tkazmalari, kredit olish, depozit qo'yish, bank kartalarini xarid qilish kabi xizmatlardan virtual tartibda foydalanish imkoniyatini beradi.

1 Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi nomidan chiqarilgan N.I Ilhomning “O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati” o'quv qo'llanmasi. 2025 yil-114b

2 Rahmonov Samandarning “Development of digital economy of Uzbekistan and impact on economic growth” maqolasi.

3 WIPO (2023): Global Innovatsiya Indeksi.



2026-yil 1-mart holatiga ko'ra banklarda raqamli texnologiyalarining ko'rsatkichlari<sup>4</sup>.


| Tijorat banklari                          | Muomaladagi bank kartalari soni | O'rnatilgan to'lov terminallari soni | O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni | 2026-yil yanvar-fevral oyi davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar (mln so'mda) |
|-------------------------------------------|---------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| Milliy bank                               | 4 266 400                       | 42 030                               | 1 024                                     | 6 174 956                                                                                     |
| Hamkorbank                                | 4 108 711                       | 59 903                               | 752                                       | 3 641 467                                                                                     |
| Agrobank                                  | 6 628 534                       | 32 493                               | 1 823                                     | 3 381 834                                                                                     |
| Xalq banki                                | 11 109 076                      | 33 525                               | 3 132                                     | 4 474 338                                                                                     |
| TBC bank                                  | 4 214 360                       | 6                                    | 0                                         | 6 520 018                                                                                     |
| Uzum Bank                                 | 6 010 597                       | 0                                    | 513                                       | 4 944 029                                                                                     |
| Jamisi (boshqa banklarni hisobga olingan) | 70 951 598                      | 439 462                              | 45 311                                    | 82 925 646                                                                                    |

Yuqoridagi statistik ma'lumotga ko'ra, hozirda qariyb 71 mln ta bank kartasi muomalada ekan, shundan 13 foizi Xalq bankiga tegishli. TBC Bank va Uzum Bank boshqa banklarga nisbatan yaqin yillarda ochilgan onlayn banklar bo'lishiga qaramasdan, muomaladagi bank kartalari soni bo'yicha 2- va 3-o'rinlarni egallagan, so'nggi 2 oyda to'lov terminallari orqali tushgan tushumlari bo'yicha Xalq bankinikidan ham yuqori ko'rsatkich qayd etgan. Bu holat raqamli bank xizmatlariga talab ortib borayotganini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning biznes sohasiga ta'siri

O'zbekistonda biznesni raqamlashtirish jarayoni davom etmoqda. 2024-yilda elektron tijorat (e-commerce) bozori hajmi 1,2 milliard dollarni tashkil etgan bo'lib, bu umumiy chakana savdoning 3,8 foiziga teng. KPMG (Klynveld Peat Marwick Goerdeler) prognoziga ko'ra, 2027-yilga borib elektron tijorat ulushi chakana savdoda 9–11 foizga yetadi va bozor hajmi 1,8–2,2 milliard dollar oralig'ida bo'ladi. Buning misoli sifatida O'zbekistonda so'nggi yillarda ommalashib kelayotgan "Uzum Market", "Yandex Market", "Ozon" va "OLX" onlayn savdo platformalarini keltirish mumkin.

### O'zbekistonda onlayn xaridlari tarkibiy ulushi



1-rasm: O'zbekistonda onlayn xaridlari tarkibiy ulushi<sup>5</sup>

Biroq hozir ham ayrim muammo va cheklovlar mavjud, ya'ni bular: ma'lumotlarni topishdagi notekisliklar, xabardorlik va resurslarni taqsimlashdagi sezilarli bo'shliqlar. Bu muammolarning asosiy sababi sifatida O'zbekistonda yuridik va jismoniy shaxslarning raqamli savodxonligi va malakalari yetishmasligi hisoblanadi. Hukumat tomonidan bu muammolarni yechish borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmogda. Misol uchun, IT Park rezidentlariga berilgan soliq imtiyozlarini olishimiz mumkin. IT Park rezidentlari maqomi — bu qulay shartlarda faoliyat yuritishni xohlovchi IT-kompaniyalar va IT-o'quv markazlariga beriladigan maxsus maqomdir. Imtiyoz shundan iboratki, rezidentlar daromad solig'ini pasaytirilgan 7,5 foiz stavkada to'laydi va qolgan barcha

<sup>4</sup> Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/3618592/> muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

<sup>5</sup> Manba: Muallif tomonidan Official Website of the United States government ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-ecommerce>



solıqlardan ozod qilingan. Ammo hali ham kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyaga moslashuv sur'ati nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, mavjud imtiyozlarning samaradorligini yanada oshirish zarur. Muammoning yechimi sifatida tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklifni ilgari surish mumkin, kichik biznes yoki firmalarga ham ma'lum miqdorda soliq imtiyozlari berish kerak. Bu ularga raqamli texnologiyalarga o'tishga rag'bat bo'ladi va raqamlashtirishni tezlashtirishi mumkin.

O'zbekistonda sun'iy intellektning ommalashish darajasi

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sun'iy intellektni rivojlantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Dastlab 2021-yil 17-fevralda O'zbekiston Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>6</sup>gi PQ-4996-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning huquqiy asosini yaratib, sun'iy intellektni joriy etishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qaror doirasida 2021–2022-yillarga mo'ljallangan SI texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Unda bir qator muhim tashabbuslar, jumladan, SI strategiyasini ishlab chiqish, davlat xizmatlarida sun'iy intellektni qo'llash, mahalliy SI ekotizimini yaratish va boshqalar kiritilgan. Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"<sup>7</sup> tasdiqlandi. Bu strategiyadan asosiy ko'zlangan maqsad mamlakatda SIni iqtisodiy va ijtimoiy sohada barqaror rivojlantirish rejasini yaratish hamda O'zbekistonni 2030-yilga borib SIga tayyorlik indeksi bo'yicha 50 ta yetakchi davlat qatoriga kiritishdan iborat.

2-jadval  
O'zbekistonning sun'iy intellektga tayyorlik indeksi<sup>8</sup>

|                                    | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     | 2025     |
|------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| O'rin                              | 93 / 160 | 79 / 181 | 87 / 193 | 70 / 188 | 62 / 188 |
| Umumiy natija                      | 40.13    | 44.51    | 43.26    | 53.45    | 88.50    |
| Hukumat ustuni                     | 37.95    | 49.90    | 42.53    | 64.71    | 79.13    |
| Texnologiya sektori ustuni         | 31.32    | 24.45    | 31.97    | 33.50    | 38.75    |
| Ma'lumotlar va infratuzilma ustuni | 51.13    | 59.17    | 55.28    | 53.45    | 45.87    |

Bundan tashqari, Yagona davlat xizmatlari portalida sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar ulushi ortib bormoqda. Hozirda sun'iy intellekt davlat xizmatlari portallarida foydalanuvchilarga konsalting xizmatlarini taqdim etmoqda. Bunga misol sifatida "My.gov.uz" yoki "OneID"ni keltirishimiz mumkin. Biroq turli xil vaziyatlarni to'laqonli tushunish borasida hali ham kamchiliklar mavjud. Shuningdek, hukumat tomonidan bu muammolarni bartaraf etish va yanada takomillashtirish borasida amaliy-ilmii ishlar amalga oshirilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi so'nggi yillarda izchil va jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini kengaytirish hamda iqtisodiyotning turli sohalariga zamonaviy raqamli infratuzilmalarni joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron hukumat tizimining rivojlanishi davlat xizmatlarining ochiqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi esa moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirib, aholiga qulaylik yaratmoqda hamda raqamli banklar ulushining oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, elektron tijorat va biznes sohasida raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy o'sishning yangi omiliga aylanib bormoqda.

Sun'iy intellektni rivojlantirish borasida qabul qilingan strategik hujjatlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning global reytinglardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim muammolar, xususan, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi, kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyaga sekin moslashuvi va texnologik infratuzilmadagi ayrim kamchiliklar mavjudligi bu sohada

6 2021-yil 17-fevralda O'zbekiston Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qaroridan.

7 2024-yil 14-oktabrda tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" dan. PQ-358-son 14.10.2024. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida

8 Manba: Muallif tomonidan quyidagi adabiyotlardan foydalangan holda tayyorlandi: uz\_digital-economy-study\_uz.pdf va Uzbekistan improves position in Government AI Readiness Index 2025



qo'shimcha islohotlarni talab etadi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi, raqobatbardoshligini oshirish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5382974>
3. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi O'RQ-395-sonli "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2833860>
4. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-sonli "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqdigi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-2381133>
5. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi O'RQ-793-sonli "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6234904>
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4396419>
7. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi 611-II-sonli "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-165079>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7158604>
9. Norqulov I.I. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, UNDP, Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, 2025. — 114 b.
10. Rahmonov S. Development of Digital Economy of Uzbekistan and Impact on Economic Growth // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. — 2025.
11. Vaxabov U.X. O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning o'rni // Ilmiy maqola. — 2024.
12. Maxmudova M.Z. O'zbekiston banklarining raqamli transformatsiyasi va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri // International Finance & Accounting. — 2025. — № 4.
13. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2023: Uzbekistan profile. — Geneva: WIPO, 2023.
14. International Trade Administration. Uzbekistan — eCommerce. Country Commercial Guide. — 2025.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026-yil 1-mart holatiga muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar hamda 2026-yil yanvar–fevral oyida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot. — 2026.
16. Trabelsi M.A. The impact of artificial intelligence on economic development // Journal of Electronic Business & Digital Economics. — 2024. — Vol. 3, No. 2. — P. 142–155.
17. Oxford Insights. Government AI Readiness Index 2025. — Oxford Insights, 2025.



## **IQTISODIYOT & TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### **6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>